



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGINING BUYRUG'I

2025 y. " 31 " iyul

N^o 01-10/166

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-95-son Farmoni ijrosini ta'minlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-95-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Farmonga muvofiq davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish maqsadida quyidagilar belgilanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin:

a) 2026-yil 1-yanvardan boshlab:

davlat xizmatiga birinchi marta qabul qilingan davlat xizmatchilari bilan mehnat shartnomasi dastlab bir yil muddatga tuziladi va keyinchalik faoliyatining ijobiy natijalariga ko'ra mehnat shartnomasi nomuayyan muddatga uzaytiriladi;

davlat xizmatiga birinchi marta qabul qilingan davlat xizmatchilari majburiy "Davlat xizmatiga kirish" maxsus kurslarini va keyinchalik har uch yilda kamida bir marotaba malaka oshirish kurslarini o'taydi hamda mazkur kurslarning yakunlari bo'yicha ularning nazariy bilim va ko'nikmalari diagnostikadan o'tkaziladi;

diagnostikada davlat xizmatchilarining tegishli soha va tarmoq bo'yicha bilim darajasi, hujjatlarni tuzish va davlat tilida ish yuritish ko'nikmalari, tahliliy, rahbarlik va kommunikativlik malakalari, kompyuter savodxonligi, qonunchilikdagi yangiliklarni, O'zbekiston tarixi va xorijiy tillarni o'zlashtirganligi, umumiy eruditsiyasi, psixologik diagnozi va intellektuallik koeffitsiyenti (IQ) kabi ko'rsatkichlari baholanadi;

diagnostika va faoliyat samaradorligi (KPI) natijalari Xodimlarning kasbiy kompetensiyalari rivojlanishini uzluksiz onlayn monitoring qilish tizimida (keyingi o‘rinlarda — Monitoring tizimi) yig‘iladi va tahlil qilinadi;

Monitoring tizimi tahlili natijalariga ko‘ra, xodimning mavjud bilim va ko‘nikmalarini kasbiy rivojlantirish xaritasi — portfoliosi yaratiladi;

kasbiy rivojlantirish xaritasi asosida davlat xizmatchisi rivojlantirishi lozim bo‘lgan “yumshoq” va “qattiq” ko‘nikmalari bo‘yicha majburiy malaka oshirish, shu jumladan, mustaqil ta‘lim olish dasturini o‘taydi;

vazirlik va idoralar tomonidan xodimlarni xorijda o‘qitish, tayyorlash, malakasini oshirish hamda stajirovkasini tashkil etish, shu jumladan, grantlar yoki donorlar mablag‘lari hisobiga amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida davlat xizmatchilarini o‘qitish, tayyorlash, malakasini oshirish hamda stajirovkasi bilan bog‘liq tadbirlar majburiy tartibda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan kelishilgandan so‘ng amalga oshiriladi;

b) 2025-yil 1-avgustdan boshlab:

respublika, hududiy va tuman (shahar) darajasidagi tashkilotlardagi lavozimlarning boshqaruv va yordamchi guruhlari uchun tanlovlar faqatgina Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona portali orqali o‘tkaziladi;

qonunchilikda lavozimga tayinlashda tegishli organlar bilan kelishilishi lozim bo‘lgan lavozimlar bo‘yicha kelishuv ushbu organlarning vakillarini tanlov komissiyasi tarkibiga kiritish yo‘li bilan amalga oshiriladi;

test sinovlari Davlat xizmatchilarini sinovdan o‘tkazish moduli orqali maxsus jihozlangan xonalarda yoki masofaviy onlayn proktoring tizimi orqali o‘tkaziladi. Bunda tegishli davlat organida test sinovlarini maxsus jihozlangan xonalarda yoki masofaviy o‘tkazish masalasi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan murojaatlar tahlili, o‘rganishlar va so‘rovnomalar natijalariga ko‘ra hal etiladi;

d) 2026-yildan boshlab iqtidorli boshqaruvchilar va liderlarni, yangi avlod rahbarlarini aniqlash va tanlash bo‘yicha “TOP-100” dasturi joriy etiladi;

mahallada faoliyat ko‘rsatib, so‘nggi ikki yillik ish faoliyati davomida ijobiy natijalarga erishgan mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim va soliq inspektorlaridan iborat 1000 nafar Salohiyatli kadrlar zaxirasi shakllantiriladi hamda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tavsiyasiga asosan lavozimlarga tanlovsiz tayinlanadi;

e) 2025-yil 1-oktabrdan boshlab davlat xizmatchilarining xorijiy va ichki xizmat safarlarini tashkil etish, hisobini yuritish va tahlilini olib borish “hrm.argos.uz” elektron tizimi tarkibidagi “Xizmat safari” yagona moduli orqali amalga oshiriladi. Bunda:

xizmat safari rejasi va natijalari, geografiyasi, xodimlar soni hamda xarajatlarni onlayn kuzatib borish imkoniyati yaratiladi;

xizmat safarlarining muayyan davlat organining faoliyati samaradorligiga bevosita, oraliq va yakuniy ta‘siri monitoring qilib boriladi;

davlat xizmatchilari har bir xorijiy xizmat safarlari yakunlari bo'yicha hisobot topshiradi hamda hisobot asosida xizmat safarining samaradorligi baholab boriladi.

f) 2026-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi asosiy yo'nalishlardagi erishilgan natijalar bo'yicha Davlat organlari faolligining milliy reytingi joriy etiladi:

davlat organlarining inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish samaradorligi;

davlat xizmatlarini ko'rsatishning tezkorligi va sifati;

davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi;

davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi;

davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining raqamlashtirilganlik darajasi;

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari va ular o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligi;

normativ-huquqiy hujjatlar bilan joriy etilgan hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa reytinglar;

reyting natijalariga ko'ra quyi pog'onadagi davlat idoralarining ish usullarini o'zgartirish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish (BPR-reinjiniring) choralari amalga oshiriladi hamda Hukumat majlislarida rahbarlar faoliyatiga baho berib boriladi.

g) Davlat organlari inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'linmalari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishning quyidagi mexanizmlari joriy etiladi:

mazkur bo'linmalar davlat organlari vazifalarining samarali bajarilishini ta'minlashga layoqatli bo'lgan inson resurslarining son va sifat tarkibini shakllantirish hamda doimiy rivojlantirib borishga qaratilgan inson resurslarini strategik rejalashtirish faoliyatiga mas'ul etib belgilanadi;

inson resurslarini boshqarishga oid ma'lumotlar va hujjatlar faqatgina "hrm.argos.uz" platformasida shakllantiriladi va yuritiladi;

inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'linmalari rahbarlari:

kadrlar siyosati bo'yicha rahbarning maslahatchisi maqomiga ega bo'ladi;

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi yoki uning filiallari bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

har uch yilda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan attestatsiyadan o'tkaziladi;

davlat organlari tomonidan inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'linmalari xodimlariga qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan funktsiya va vazifalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

h) Quyidagilar:

Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi 1-ilovaga muvofiq;

Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha 2025-2026-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi 3-ilovaga muvofiq;

Davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlari ro'yxati 4-ilovaga muvofiq;

Respublika, hududiy va tuman (shahar) darajasidagi davlat organlari davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri 5-ilovaga muvofiq;

Milliy darajadagi davlat organlari davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri 5a-ilovaga* muvofiq; (* 5a-ilova berilmaydi)

Davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash uchun tanlov o'tkazish tartibi to'g'risida nizom 6-ilovaga muvofiq;

Milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risida nizom 7-ilovaga muvofiq;

Davlat fuqarolik xizmatchilariga malaka darajalarini berish tartibi to'g'risida nizom 8-ilovaga muvofiq;

Davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz ravishda oshirish tartibi to'g'risida nizom 9-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi.

2. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-95-son Farmonida berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga;

Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparatidagi vakant lavozimlarga nomzodlarni ishga qabul qilish bo'yicha tanlov komissiyasi tarkibi 2-ilovaga;

Yoshlar ishlari agentligi hududiy bo'linmalaridagi vakant lavozimlarga nomzodlarni ishga qabul qilish bo'yicha namunaviy tanlov komissiyasi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yoshlar ishlari agentligi Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (S.Xamdamov) hududiy bo'linmalar bilan birgalikda:

2026-yil 1-yanvardan boshlab davlat xizmatiga birinchi marta qabul qilingan davlat xizmatchilari bilan mehnat shartnomasi dastlab bir yil muddatga tuzish va keyinchalik faoliyatining ijobiy natijalariga ko'ra mehnat shartnomasi nomuayyan muddatga uzaytirish;

vakant lavozimlar uchun tanlovlarni faqatgina Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona portali orqali o'tkazish;

Agentlik tizimidagi vakant lavozimlarga Davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash uchun tanlov o'tkazish tartibi to'g'risida nizomda belgilangan tartibga muvofiq xodimlarning ishga qabul qilinishini, shu jumladan, salohiyatli kadrlar zaxirasiga kiritilgan mahalladagi yoshlar yetakchilarining Davlat xizmatini

rivojlantirish agentligi tavsiyasiga asosan lavozimlarga tanlovsiz tayinlanishini doimiy nazorat qilish;

bir hafta muddatda 3-ilovadagi namunaviy tanlov komissiyasi tarkibidan kelib chiqib hududiy tanlov komissiyalari tarkibini tasdiqlash;

inson resurslarini boshqarishga oid ma'lumotlar va hujjatlarni faqatgina "hrm.argos.uz" platformasida shakllantirish va yuritish vazifalari yuklatilsin.

4. Yoshlar ishlari agentligi direktorining 4-ilovaga muvofiq ayrim buyruqlari o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Direktorning
birinchi o'rinbosari**



D.Kattaxanova

Yoshlar ishlari agentligining
2025-yil 31 -iyuldagi
01-10/ 166 -son buyrug'iga
1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-95-son Farmonida berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha
CHORA-TADBIRLAR REJASI**

T/r	Vazifa	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
1.	Xodimlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida boshlab har ish kunining muayyan vaqtlarida jismoniy tarbiya va harakat faolligi bo'yicha tadbirlar o'tkazib borish.	2025-yil avgust oyidan boshlab	"Sport targ'ibotchisi" (A.Islomov), Kasaba uyushmasi qo'mitasi (A.Alimov), Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (S.Xamdamov), Agentlikning hududiy boshqarmalari boshliqlari
2.	Imkoniyatdan kelib chiqqan holda tashkilot hududida sport zonalarini tashkil etish va xodimlar jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlash.	2025-yil 10-dekabr	"Sport targ'ibotchisi" (A.Islomov), Kasaba uyushmasi qo'mitasi (A.Alimov), Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (S.Xamdamov), Davlat xaridlarini tashkil etish, energiya tejamkorligini ta'minlash va xo'jalik bo'limi (I.Ziyodilloev), Moliya-iqtisod bo'limi (J.Rasulov), Agentlikning hududiy boshqarmalari boshliqlari
3.	Xodimlar o'rtasida tana vazni indeksi o'lchab borilishini hamda har bir xodim bo'yicha ma'lumotlarning "hrm.argos.uz" platformasiga muntazam kiritib borilishini ta'minlash.	2025-yil 10-dekabr	"Sport targ'ibotchisi" (A.Islomov), Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (S.Xamdamov), Agentlikning hududiy boshqarmalari boshliqlari
4.	Xodimlar o'rtasida sog'lom turmush tarziga rioya etilishi bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqish va tasdiqlash.	2025-yil 10-dekabr	"Sport targ'ibotchisi" (A.Islomov), Agentlikning hududiy boshqarmalari boshliqlari
5.	Davlat fuqarolik xizmatida inklyuzivlikni oshirish. Bunda: Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlarni davlat fuqarolik xizmatiga jalb etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2026-yil 11-dekabr	Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (S.Xamdamov), Agentlikning hududiy boshqarmalari boshliqlari
6.	Mahallada faoliyat ko'rsatib, so'nggi ikki yillik ish faoliyati davomida ijobiy natijalarga erishgan yoshlar yetakchilarini Salohiyatli kadrlar zaxirasiga kiritish va Istiqbolli kadrlar ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlarni kiritish	Doimiy	Mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va metodologik ta'minlash bo'limi (Sh.Xonimov), Agentlikning hududiy boshqarmalari boshliqlari

7.	Yil davomida erishilgan natijalar, sohada fuqarolarga yaratilayotgan qulayliklar hamda kelgusidagi vazifalar interaktiv tarzda keng jamoatchilikka yetkazib borish.	Doimiy	Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (S.Xamdamov), Axborot xizmati (N.Abduqodirov), Agentlikning hududiy boshqarmalari boshliqlari
8.	Eng namunali davlat xizmatchilari faoliyati, davlat xizmatchilarining bir kuni to'g'risida videorolik va filmlar namoyishi o'tkazish.	Doimiy	Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (S.Xamdamov), Axborot xizmati (N.Abduqodirov), Agentlikning hududiy boshqarmalari boshliqlari
9.	Davlat xizmatchilarining oila a'zolari uchun "oila kuni" tadbirlari (family day) tashkil etish.	2025-yil avgust	Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (S.Xamdamov), Kasaba uyushmasi qo'mitasi (A.Alimov)
10.	Davlat fuqarolik xizmatchilariga malaka darajalarini berishni tashkil etish to'g'risida Agenlik direktori buyrug'ini tasdiqlash.	2025-yil avgust	Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (S.Xamdamov)
11.	Davlat xizmatchilariga, istisno tariqasida bir marta, ular egallab turgan lavozimiga muvofiq, biroq, ulardagi mavjud maxsus unvonlardan (martaba yoki malaka darajalari) past bo'lmagan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining malaka darajalari berilishini ta'minlash	2025-yil 1-noyabrga qadar	Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (S.Xamdamov), Agentlikning hududiy boshqarmalari boshliqlari

Yoshlar ishlari agentligining
2025-yil 31 -iyuldagi
01-10/166 -son buyrug'iga
2-ilova

**Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparatining nomzodlarni vakant
lavozimlarga ishga qabul qilish bo'yicha tanlov komissiyasi
TARKIBI**

1. A.X.Xolmaxmatov – Yoshlar ishlari agentligi direktorining maslahatchisi, *tanlov komissiya raisi*
2. S.O'.Xamdlov – Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi boshlig'i, *tanlov komissiya a'zosi*
3. A.A.Alimov – Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish, yoshlar huquqbuzarligi va jinoyatchiligi profilaktikasiga ko'maklashish bo'limi boshlig'i, Kasaba uyushmasi raisi, *tanlov komissiya a'zosi*
4. A.N.Xalikov – Yudik bo'lim boshlig'i, *tanlov komissiya a'zosi*
5. D.R.Aralov – Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati bo'yicha bosh mutaxassisi, *tanlov komissiya a'zosi*
6. *Lavozimiga ko'ra* – vakant lavozimiga tanlov e'lon qilingan tarkibiy bo'linma rahbari, *tanlov komissiya a'zosi*
7. B.K.Aliboyev – Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi, *tanlov komissiyasi mas'ul kotibi*

Izoh: *Komissiya a'zosi lavozimdan ketganda uning o'rniga tayinlangan yoki vazifasini bajarayotgan shaxslar komissiya tarkibiga kiritiladi.*

Tanlovning suhbat bosqichida tanlov komissiyasi raisi ishtirok etmagan hollarda tegishli soha yo'nalishi bo'yicha Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari komissiya tarkibiga raislik qiladi.

Yoshlar ishlari agentligining
2025-yil 31-iyuldagi
01-10/166-son buyrug'iga
3-ilova

**Yoshlar ishlari agentligi hududiy Yoshlar ishlari boshqarmalari va tuman
(shahar) Yoshlar ishlari bo'limlarining vakant lavozimlariga nomzodlarni
ishga qabul qilish bo'yicha namunaviy tanlov komissiyasi
TARKIBI**

1.	Lavozimiga ko'ra	–	Agentlikning hududiy boshqarma boshlig'i, <i>Tanlov komissiyasi raisi</i>
2.	Lavozimiga ko'ra	–	Agentlikning hududiy boshqarma boshlig'i o'rinbosari
3.	Lavozimiga ko'ra	–	Agentlikning hududiy boshqarma kadrlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi
4.	Lavozimiga ko'ra	–	Agentlikning hududiy boshqarmasi Yuristkonsulti
5.	Lavozimiga ko'ra	–	Agentlikning tuman (shahar) bo'limi boshlig'i*

Izoh: Komissiya a'zosi lavozimdan ketganda uning o'rniga tayinlangan yoki vazifasini bajarayotgan shaxslar komissiya tarkibiga kiritiladi.

*Ushbu komissiya a'zosi Agentlikning tegishli tuman (shahar) bo'limiga xodimlarni ishga qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan tanlovda tanlov komissiyasi tarkibiga kiritiladi.

Yoshlar ishlari agentligining
2025-yil 3/ -iyuldagi
01-10/166 -son buyrug'iga
4-ilova

**Yoshlar ishlari agentligi direktorining o'z kuchini yo'qotgan deb topilayotgan
ayrim buyruqlari
RO'YXATI**

1. Yoshlar ishlari agentligi direktorining 2024-yil 20-avgustdagi "Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati va hududiy bo'linmalaridagi vakant lavozimlarga nomzodlarni ishga qabul qilish tartibini belgilash to'g'risida"gi 02-07/139-son buyru'g'i.

2. Yoshlar ishlari agentligi direktorining 2024-yil 2-oktabrdagi "Yoshlar ishlari agentligi direktorining 2024-yil 20-avgustdagi "Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati va hududiy bo'linmalaridagi vakant lavozimlarga nomzodlarni ishga qabul qilish tartibini belgilash to'g'risida"gi 02-07/139-son buyrug'iga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi 01-10/155-son buyru'g'i.